



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MA'NAVIY-
AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA KITOBXONLIKNING
AHAMIYATI**

Karamatova Dilfuza Sadinovna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası dotsenti.*

Ravshanova Mohinur O'tkir qizi

Nizomiy nomidagi O'MPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi II bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaa qilish odobi, kitobdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda o'qish darslarining ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *mutolaa, kitobxonlik, ta'lim-tarbiya, mustaqil o'qish, sinfdan tashqari o'qish.*

**THE IMPORTANCE OF LIBRARIES IN FORMING THE SPIRITUAL AND
MORAL EDUCATION OF PRIMARY STUDENTS**

Abstract. *This article highlights the importance of reading lessons in forming a reading culture, book reading etiquette, and skills in the proper use of books among elementary school students.*

Keywords: *read, reading, education, independent reading, extracurricular reading.*

Kirish. Boshlang'ich sinflarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o'qish darslari alohida o'rin tutadi. Bizning rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ham kitobxonlikka katta e'tibor qaratilgan. Kitob, avvalo, hayotiy makyab, ma'naviyat manbaidir. U yoshlarni hayot bilan tanishtiradi, hayotni sevish, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi. Kitob o'qish orqali bolalarning badiiy idroki, mustaqil fikrlash qobiliyati, mutolaa madaniyati, Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usi tarbiyalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenri Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan mazkur masalalarga davlat siyosati darajasida qaralib, samarali ishlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, avvalo, xalqning ijtimoiy turmushini yaxshilash, ma'naviy-ma'rifiy tafakkurini yuksaltirish, barchaga birdek go'zal va farovon hayotiy muhit yaratishga erishishga qaratildi.

Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani hamda xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga jiddiy ahamiyat berildi [15, 16].

Kitobxonlik madaniyati - bu nafaqat kitoblarni o'qish va ulardan bilim olish jarayoni, balki shaxsiyatning ma'naviy-axloqiy, estetik, fikrlash va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omil [17, 18]. Bugungi kunning jamiyatida kitob o'qish va kitobxonlik madaniyati shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu masala ta'lim tizimi va yoshlar tarbiyasiga aloqador bo'lib, ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rgatilishi lozim.

Kitobxonlik madaniyati — bu kitoblarni tanlash, o'qish, ulardan olingan bilimlarni amalda qo'llash, bilim va madaniyatni yuksaltirishga intilishdan iborat bo'lgan jarayondir. Bu madaniyat, ayniqsa, yosh avlod uchun ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularning dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Kitobxonlik madaniyati nafaqat o'qish, balki kitoblarni qadrlash, ulardan to'liq foydalana olish, o'z fikrini incho va maqolalarda ifoda etish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi [19, 20].

Kitob o'qishning jamiyatdagi ahamiyati beqiyosdir. U nafaqat individning ma'naviy dunyosini boyitadi, balki butun jamiyatning ilmiy, madaniy, axloqiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Kitobxonlik madaniyati insonni nafaqat bilim olishga, balki zamon va makon o'zgarishlariga moslashish, tanqidiy fikrlash, tarixiy va madaniy merosni qadrlashga ham o'rgatadi [21, 22].

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O'qish madaniyati” kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

Adabiyotlar tahlili. “Mutolaa” so'zi arabcha “o'qish” degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda.

O'zbekistonlik tadqiqotchi olim A.Umarovning fikricha: “Mutolaa” madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida indvidlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir. Ayni paytda mutolaa madaniyatini ta'lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma'lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek, subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a'zolari...) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotdan farqlash lozim bo'ladi [1, 2].





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O'zbek tilshunos olimi E.I.Yo'ldoshev «O'qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta'rif beradi: «O'qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi». Jumladan, axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to'g'ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma'lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot okimlari orasidan kerakli, muhim bo'lgan ma'lumotlarni ola bilish, o'z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot rsurs markazlaridan to'g'ri foydalanish yo'llarini o'rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi [3]. Axborot olish madaniyatini to'liq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon terminini qo'llash o'rinlidir [4].

O'zbek pedagog olimi Safo Matchon: «Kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkin-ki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini nechog'li uqishini, ya'ni asar «tili»ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha, kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: «Kitobxonlikka o'rganish uchun qanchalik ko'p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag'ishladim, lekin hali ham o'rgandim, deb ayta olmayman» [5, 6].

Rus olimi Valentin Ferdinandovich Asmus o'zining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta'rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir ko'zadan ikkinchi ko'zaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi» [7, 8].

«Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan», - deb yozadi H.To'xtaboyev. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir [9, 10].

Natijalar. Boshlang'ich sinfdagi ta'lim-tarbiya jarayoni yaxlit jarayon bo'lib, uni uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina ruhan va jismonan sog'lom, Vatanga sadoqatli burch va mas'uliyatga ega, insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan, ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ulari barqaror shakllangan yoshlarni tarbiyalash imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kuzatish shuni ko'rsatdiki, bu yoshda o'quvchilar juda qiziquvchan bo'lib, ularning bu qiziqishlari atrof olamni (ijtimoiy hayotni, tabiatni) undagi o'zgarishlarni idrok qilishga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonda ko'rgazmali obrazli tafakkur boshlang'ich sinf o'quvchisining tafakkurining asosiy turi ekanligi ta'kidlanadi.





1. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarini tizimli rivojlantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022.

2. Karamatova D.S. Zamonaviy ekologik ta'limda bolalarning tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarini shakllantirish imkoniyatlari. Miasto Przyszłości. Volume 29 (2022) of Impakt Factor: 9.2. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/747>. 194-196 b.

3. Karamatova D.S. O'quvchilarda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish yo'llari. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnal. Toshkent, 2022. – № 3-son (may-iyun) -B. 104-107.

4. Karamatova D.S. Zamonaviy ekologik ta'lim mazmunida integrativ yondashuvni ta'minlash // Myg'alim xam bilimlendi. – № 3. – Nukus, 2022 – B. 90-95.

5. Karamatova D.S. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish // TDPU Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal. 2023 yil, 7-son. 331-338 b.

6. Karamatova D.S. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda meta-predmetli yondashuv // Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 2024, 5-son. 249-254 b.

7. Karamatova D.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim-tarbiya berishning muhim vazifalari // XXI asr ko'nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli: Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konf. material. 2022-yil 18-noyabr. – Jizzax, 2022. – B. 464-468.


8. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo'lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatini shakllantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – B. 950-955.

9. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – B. 956-962.

10. Karomatova D.S., Qilichova, M. Pedagogning kasbiy kompetentligi va uni amaliyotda qo'llay olish mahorati // Science and innovation. 2022, 1(B7), 764-768.

11. Karomatova D.S., Qilichova M.J. Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlash metodikalari // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022, 1(4), 11-15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7248826>

12. Karamatova, D., & Mahmudova, N. (2025). Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchining kreativ yondashuvi // Theoretical Aspects In The Formation Of





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Pedagogical Sciences, 2025, 4(7), 133-138. Zenodo.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15210702>

13. Masharipova U. Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash // Boshlang'ich ta'lim, 2010, № 4.

14. Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi. -T.: O'qituvchi.

15. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // Scientific Progress. Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>

16. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'rni // Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». ISSN: 2658-7998. Выпуск №24 (том 4) (март, 2022). - C.751-754.

https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf

17. Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o'zaro hamkorligi // Problems And Scientific Solutions. - Australia, Melbourne. 2022. – B. 114-123.

<https://zenodo.org/record/6762227#.Y1G7dXZByUk>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226>

18. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A. Shaxs mobilligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida // Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali. Volume 2, ISSUE 1, ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869. 2024. January. -Pp. 16-25.

19. Салаева М.С., Халилова Ш.Т. Ўспиринларда креатив фикрлашни ривожлантиришнинг психологик жиҳатлари / “Психологияни ўқитишда замонавий инновацион ёндашув: психологлар фаолиятини ташкил этишда илғор технологиялар” номли Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. Низомий номидаги ТДПУ “Психология” ўқув-илмий маркази. 2019 йил 24 декабрь. – Б.13-16.

20. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali, ISSN - 2181-2608. Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59-62. <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>

21. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // Scientific Progress. Volume 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>

22. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 Volume





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

2 Issue 4, April 2022. ISSN 2181-2888. Pages 136-139.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>

23. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 276-281.

24. Salaeva M.S., G‘ulamova S.R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 209-213.

25. Salaeva M.S., Urazova K.V. Boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatning kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar psixik rivojlanishiga ta’siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022. - B.432-441. ISBN 978-601-06-8694-6

26. Салаева М.С., Павлова М.В. Арт-терапия как средство гармонизации и развития психики младших школьников/ «Заманагөй тәлим хәм тәрбия технологиялары: тәжірийбелер, машқалалар хәм перспективалар» атамасында Республикалық илмий-әмелий конференция материаллары топламы. Нөкис. 2022. – Б.412-415.

27. Салаева М.С., Ким Х.В. Формирование положительной мотивации у младших школьников к учебной деятельности// World of Scientific news in Science International Journal. 2024 Vol. 2 №. 4. – Pp. 147-153.
<https://worldofresearch.ru/index.php/wsjs/article/view/439>

28. Qosimova K, Matjonov S, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. - T.: Noshir. 2009. - 77 b.

